

1-“B” SINIF “SAVODXONLIK BAYRAMI” SSENARIYSI

Karnay surnay sadosi ostida o’quvchilar kirib kelishadi.

1-boshlovchi:

Assalomu mehmonlar Mehri ziyolilar,
Yuzlari quyosh-u qalbi daryolar,
Sizga kam tengdoshlar dildan ehtirom.
Qo’llar ko’ksimizda deymiz Assalom.

2-boshlovchi:

Assalomu aleykum fidoyi jon kuyar sabr-matonatga boy qalbi ezgulikka to’la
nur ziyo taratuvchi ustoz va murobbiylar hamda tadbirimiz mehmonlari.

1-boshlovchi:

Ustoz o’qituvchi, muallim, bu so’zlar bir-birini aynan to’ldirmasada, ma’no
mohiyati yaqin zaminida olam-olam ma’no mujassam. Eng avvalo yozish va
qanday o’qishni o’rgatgan inson-u.

2-boshlovchi:

Shubxasiz, o’qituvchining obro’ qozonishi o’z o’zidan bo’lmaydi. Buning
uchun u yillar davomida jon kuydirib mehnat qiladi.

1-boshlovchi:

Haqiqattan ham o’quvchilarni o’z farzandidek, qabul qilib mehr ko’rsatib ilm
berishdek ulkan, zahmatli, oliyjanob vazifani ado etishda o’qituvchilarning
hissasi beniyohat kattadir.

2-boshlovchi:

Aziz ustozlar hurmatli ota-onalar maktabimizga tashrif buyurgan qadrli
mehmonlar. Mana bugun 1-“B”-sinf o’quvchilarning hayotida unutilmas
daqiqalardan biri bo’lgan “SAVODXONLIK” bayramiga xush kelibsiz.

1-boshlovchi:

Ular qisqa fursat ichida o'qish va yozishni, o'rganib oldilar. Kelinglar sizlarni ruhsatingiz bilan davraga taklif etamiz.

O'quvchilar kirib kelishadi.

2-boshlovchi:

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Mustaqil yurt deb e'lon qilindi. Shu bois, O'zbekiston o'z gerbi, madhiyasi va bayrog'iga ega.

O'quvchilar ijrosida "O'zbekiston" qo'shig'i

O'quvchilar madhiya ijro etishadi.

Bayroq va Gerb haqida o'quvchilar she'rlarini aytishadi.

Xalqimiz orzu niyati,
Dilga quvonch soladi.
Bayrog'imiz dunyo uzra,
Yurtga dovrug' soladi.

Bayroqdagi to'rt xil rang,
Xamoxandir birlikda,
Bir-birini to'ldiradi,
Maqsad sari tenglikda.

Havo rang tinchlik,
Oq rangdir poklik ramzi.
Yashil yashayotgan el,
Qizil rang havo ramzi.

Yulduzlar va to'lin oy,
Yaxshi niyatga chorlar.
Duoga ochamiz qo'l,
Dilga nur poklik sochar.

Ramzlarimizda buyuklik,
Aks etgandir biling siz.
Xumo qushi yetaklar,
Maqsad sari boshimiz.

Paxta bug'doy chambari,
To'kinlik to'qlik ramzi.
Quyosh, yulduz suv tog'lar,
Yashnayotgan yurt timsoli.

Aziz vatan bashar quvonchi,
Paxtangdek, oq-oydin yo'llarning.
So'lim tog'im ko'nim ishonchim,
Yolg'onlarga bermasman seni.

Vatanimiz gerbida,
Charaqlab ular quyosh.
Qanotin keng yoyib,
Mag'rur turar Humo qush.

O'ng tomoni-paxtazor,
Yurtimning oq oltini.
So'l tomoni-bug'doyzor,
Vatanimning non-uni.

“Sog'lom bola bo'laman” she'ri

Men baxtiyor bolaman,
Har kun kuchga to'laman.
Sog'lom – tanda – sog' aql,
Sog'lom-bola bo'laman.

Maktab sari o'tlanib,
Ilmu zarga shaylanib.
Kimyogarga aylanib,
Sog'lom bola bo'laman.

Men baxtiyor bolaman,
Ko'krak kerib yuraman.
Ozod, hur zamonda,

Sog'lom bola bo'laman.

Vatanim – ozod, bo'ston,
Baxtimsan – O'zbekiston!.

Bunda yayrab bolajon,
Sog'lom bola bo'laman!...

1-boshlovchi:

Haqiqattan ham bolalar yaxshi o'qib bilim olishi uchun sog'lom bo'lishlari kerak.

Vatan haqida she'r

Nima ko'rding Toshkentda?

Mevalarning aslini.

Doim quyosh faslini,

Quyosh bunda izzatda.

Tong yorishgan chog'larda,

Yerga kulgu sochilar.

Shu uchun dudoqlarda,

Sho'x g'unchalar ochilar.

Yurt chorlasa birlashing,

Aylaning bir jon-tanga.

Xudoga sig'ingandek,

Sig'ining shu Vatanga.

Ushbu xikmat damo-dam,

Jaranglasin sadodek.

Bu dunyoda Vatan ham,

Bitta bo'lar xudodek.

Har kim o'zin qo'rg'onin,

Qurganiga ne yetsin.

O'z yurtida davronin,

Surganiga ne yetsin.

Aziz o'quvchilarimiz ustoz va ota-onalarga o'z salomlarini qo'shiq orqali ijro etishadi.

O'qituvchi: Assalomu aleykum aziz ustozlar va ota-onalar mana bugun 1 "A"-sinf o'quvchilarning bugun "Savodxonlik bayrami"ga xush kelibsiz!...

O'quvchilar tomonidan "O'qituvchi"larga atalgan she'rlar.

Seb borsan go'zal bu dunyoda,
Dunyo sendan rang olar go'yo.
Senga olqish, senga tasanno,
Yurtga tumor murabbiylarim.

Hayot ummonida bamisli mayoq,
Yiroqlarga nazar tashlar ustozlar.
Sodiq shogirdlarga berarkan saboq,
Doim haq yo'lga boshlar ustozlar.

Hali-hali yodda ustoz,
Sizga ta'zim-sizga e'zoz.
Tinmas edik berib savol,
Nima to'g'ri, nima halol.
Qalbimizga joylab odob,
Yoritdingiz go'yo oftob.

Boshimni silab doim,
Qo'limdagi kitobim.
Muallimim ustozim,
Sizda bor cheksiz bardosh.

Yo'lchi yulduz bo'ldingiz,
Mehribon muallimim.
So'zingiz hikmat erur,
Dilimizni yoritgay.
Yo'limizni yoritgay,
Jonajon muallimsiz.

Muallimiz ustozimsiz,

Qalbimning mumtozisiz.
Ismi jismiga monand,
Bizlarga jonu payvand.

Ta'riga so'z yetarmi,
Mehribon muallim.
Fikr dono, aqli teran.
Jonajon muallimsiz.

Sizdan o'rgandim bilim,
O'qib, dunyoni bildim.
Bo'ling deyman sog'-omon,
Birinchi muallimim.

Bilimlarni ayamay,
Ustozlar berar ta'lim.
Bizlar o'qib, o'rganib,
Bir kun bo'lamiz olim.

O'QUVCHILAR IJROSIDA RAQSLAR:

O'qituvchi: -Aziz ukajon-singiljonlar! Shu oz fursat ichida nimalarni o'rgandingiz?

O'quvchilar:

-Biz o'qishni, yozishni, qo'shish va ayirishni o'rganib oldik.

-Kelinglar, hozir hammamiz birgalikda oz fursat ichida sizlarni sevimli kitobizga aylangan "ALIFBE" hamda "MATEMATIKA" kitoblarini bu yerga chaqiramiz.

O'quvchilar "ALIFBE" va "MATEMATIKA" kitoblarini chaqirishadi.

Matematika va Alifbe kirib keladi.

O'quvchilar:

Alifbejon kelaqol olqishlaymiz quloq sol.

Alifbe:

Salom aziz bolajonlar,

Chiroyli gul lolalar.

O'quvchilar:

Alifbejon sengadir ta'zim,
Sen tufayli birondir so'zim.

Alifbe:

Xo'sh, Shahnoza bolalar aytingchi chindan nimalarni bildingiz mendan?

O'quchilar: Ko'p narsani kitobim mana eshit oftobim.

So'ng she'r o'quvchilar aytishadi. Harf va sonlar haqida.

Jami yigirma to'qqizta,
Har yigirma to'qqiz harf.
Yashaydi do'st, inoq,
Shuning uchun ularning.
Yo'li ochiq va porloq,
Bari aniq, lo'nda harf.

Undoshlardir qolgani,
Ular ham bo'linadi.
Jarangli, jarangsizdir,
Ball ey dili oqlar.
Bilinga ho'p chanqoqlar,
Qani bir-bir aytingiz,
Qanday harflar bildingiz.

Bugun sizda zo'r bayram,
Mehmonlar ham jami jam.
Bizlar quvnoq bolalarmiz,
Qator bo'lib turamiz.
Harflardan so'z tuzamiz.

HARFLAR

Aa

Men "A"dirman, "A"dirman,
Ko'p narsaga qodirman.
"Qor", "bol" so'zlarga qara,
Yasadim "Qora bola"

Bb

B harfman bebaho,
Boshlaganim besh baho.
Sen o'ylagan barcha o'y,
Meni qo'shsang cho'zar bo'y.

Dd

Men "D"dirman, "D"dirman,
Doim dono so'z derman.
Ko'zlaringda chaqnab o'q,
Meni qo'shib urma do'q.

E e

Egilaman egilsang,
Ezilaman ezilsang,
Shunday paytda mungliman,
Asli esa unliman

F f

Men unlimas undoshman,
Fazo so'zida bushman.
Ba'zan "v"dek jaranglab,
Qolsam turma alanglab.

G g

"G" harfiman guldagi,
Qo'shimchada yo'ldagi.
Tushib qolsam gohda goh,
O'sha so'z ham chekar oh.

H h

X – dan farqli shaklim ham,
Yumshoq fe'lman, haqliman.
Katta harfiman narvondek,
Borman hisda, hayronda.

I i

”I”harfiman ilmda,
Qo’shaloqman bilimda.
Mehr, sehrda biroq,
Yozmasangiz to’g’riroq.

J j

Jahon so’zin tuzganman,
Janjal qilib buzganman.
Qachon shu so’z boshlanar,
Ko’zim birdan yoshlanar.

K k

Kitob so’zin boshlayman,
Dangasani g’ashlayman.
Kaklik so’zida uchtaman,
Kamtarda va kuchdaman.
Qo’shilib men o’zingga,
Deyman: “Qara ko’zingga”.

L l

Lampada menman yolg’iz,
Laylakda ikkitamiz.
Topdim bir so’z “lallayib”,
Unda ketdik ko’payib.

M m

Men M – dirman meribon,
Muruvvatim bir jahon.
Aytmam boshqa xislatim,
Maqtanmaslik maqsadim.

N n

Nondek aziz nomdaman,
Sanoqda va sondaman.
Yana borman qayoqda,
Nega? Nima? so’roqda.

O o

Mening shaklim dumaloq,
Yoziq so'zlar omon, oq.
Olim, odob so'zin men,
Boshlaganman o'zim men.

P p

Paqilloqni paqillab,
Yursa kimdir laqillab.
“P” harfida beomon,
Bir so'z kelar – pushaymon .

Q q

Qilib qattiq talaffuz,
“Q” harfida toping so'z.
Qachon, qayerda, qancha...
Bu so'zlar ekan ancha.

R r

Rost so'z aytsang rostlanib,
Vijdon ketar sozlanib.
“R” dan boshlangan rahmat,
Tegadi senga albat.

S s

Salom sizga salomlar,
“S”dan kelgan kalomlar.
So'zlar topib oz, iz, o'z,
“S”ni qo'shib yasang so'z.

T t

Ikki chiziq, bitta harf,
Ko'p qilmaysan kuch ham sarf.
To'qmoq, taroq so'zdaman,
Tariq, tovoq tuzdaman.

U u

Men “U” dirman, unli “U”,

Ham kishilik olmosh u.
Bilib qo'ying shuni ham,
Ko'rsataman uni ham.

V v

A harfga qo'shsang meni,
Va deb bog'layman seni.
Nimadir bir jon – u tan,
Men, oilam va Vatan.

Y y

Uchrayman har tomonda,
Yaxshida va yomonda.
Yor – yorda va yallada,
Faqat yo'qman allada.
Qiling shunga e'tibor,
Borda yo'qman, yo'qda bor.

Z z

Men zo'rdirman, ziyrakman,
Zar zirakka kerakman.
Hech zumda, hech zamonda,
“Z”harf yo'q to'polonda.

O' o'

Men ham shunday belgili,
Shundan harfim belgili.
Aks holda “O” dan mutloq,
Ajratolmaysan, o'rtoq.

G' g'

G'ildiraklarni G'ani,
G'ildiratganda, meni.
Bosh harf bilan yozasiz,
“G”ga belgi osasiz.

Sh sh

Ikki belgi, bitta harf,

Shoshma yozsang.
Shamshod sharf.
Meni qo'shsang sen onga,
Kim to'lar sharaf – shonga.

Ch ch

Chaqimhini chaqqanman,
Chiroyliman, chaqqonman.
Men qo'shilsam oynakka,
Ko'zing tushar choynakka.

Ng ng

Qani menga bir qarang,
Men yo'q joyda ahvol tang.
Men bo'lmasam otmas tong,
Soat esa urmas bong.

Alifbe:

Barakalla bolalar

So'ng matematika kitobi gapiradi.

-Men matematika kitobiman.

-Men bilan birga ko'p narsalarni o'rganib oldilar.

-Mendan nima bildingiz?

So'zlang nelar ildingiz?

Raqamlar:

1. Birinchi bo'ling har ishda,

Ilg'orlikda o'qishda.

2. Ikki qo'ldan chiqar qars,

Ikki olma qilgin dars.

3. Uch og'ayni botirlar,

Dushmanni yakson qilar.

4. Yaratganing naqd bo'lsin,

To'rt muchaling sog' bo'lsin.

5. Besh baho – a'lo baho,

Besh olib bo'ling dono.

6. 1 va 5 ni qo'shib olti qilamiz.

Birinchi va a'lochi omon bo'lsak ko'ramiz.

7. Yetti o'lchab bir kes,

Ishing rivojini juda sez.

8. Ikki va olti qo'shilgan oni,

Hosil bo'lar sakkiz soni.

9. Sakkiz sal nari yurar,

To'qqiz tashrif buyurar.

Matematika:

Raqamlarni bilibsiz, o'lchabsiz chindan.

O'quvchilar:

Juft va toq, o'ng chapni,

Sendan biz bilib oldik.

Qiziq misollar yechib,

Aqlni ishga soldik.

Alifbe nimalarni o'rgandingiz

Qo'shiq "Alifboni o'rgandik"

Bolajonlar siz mendan,

Ko'p narsalar bilibsiz.

Bilim to'la konimdan,

Duru gavhar teribsiz.

Fursat yetdi siz bilan,

Xayrlashib ketaman.

Do'stim o'qish kitobni,

Endi taklif etamiz.

O'quvchilar:

Hammamiz shod baxtiyor,

Katta bayram biz uchun.

Minnatdormiz Alifbe,

Xayrlashamiz bugun.

O'qish kitobi:

Salom aziz bolalar,

Chiroyli gul lolalar.

Menchi – o'qish kitobman,

Yoningizga keldim men.

Kerakligini bildim men.

O'quvchilar:

Kitobim bo'l xotirjam,

Ozor bermaymiz hech ham.

O'qish :

Men bir chuqur quduqman.

Limmo-limdir suvlarim

Qonib-qonib ichsangiz

Bahoingiz "5" do'stlarim

Hamma:

Ey kitobjon tashnamiz

Tinchlik zilol suviga

Seni tutar chanqoq dil

Oq payondozi yo'lingga

O'qish:

Aziz o'quvchilar yana nimalarni o'rgandingiz?

"Kitob" haqida she'rlar:

Yosh avlod qo'shig'i o'quvchilar ijrosida

O'qituvchi: Hurmatli ustozlar, aziz ota –onalar, shirin bolajonlar! Shu bilan "Alifbe" bayramimiz o'z nihoyasiga yetdi. Sog'-salomat bo'ling, mehribon ota-onangizga, ona yurtimizga, jonajon xalqimizga qiladigan bilimdon, serqirra, fidoiy farzandlar bo'lib yetishing. Bilimlarni chuqur egallab, o'z vatanini chin dildan sevgan vatanparvar bo'lib yetishing.

So'z navbatini endi ota-onalar va ustozlarga beramiz. Ustozlar va ota-onalar o'quvchilarga keying kelajagiga va o'qishlariga omad tilab qolishdi. Shu bilan birga o'quvchilarimizning Savodxonlik bayrami o'z nihoyasiga yetdi.

E'tiboringiz uchun rahmat!
